



# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## FARG'ONA VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


2024- yil yanvar-fevral




*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-fevral)



**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlik  
ulushi - 63,9%**



**Aholi jon boshiga  
xizmatlar hajmi –  
1 152,0 ming  
so'm**




**Xizmatlar  
sohasidagi korxonalar  
va tashkilotlar  
ulushi - 36,1%**



**Xizmatlar hajmi  
4 629,8 mlrd.  
so'm**

**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-mart holatiga ko'ra)



## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-fevral)




## Soni, birlikda



## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- mart holatiga ko'ra)



Soni, birlikda

2024

21 985

2023

22 746

2022

25 115

2021

22 070

2020

16 370

Soni, birlikda

2024

778

2023

847

2022

368

2021


736

2020


408

## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(yanvar-fevral)



## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-fevral)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-fevral)



<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan



## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>4 629,8</b>	<b>100,0</b>	<b>114,2</b>
Farg'ona shahar	1 294,0	28,0	115,4
Qo'qon shahar	761,9	16,5	117,3
Quvasoy shahar	99,2	2,1	112,3
Marg'ilon shahar	363,2	7,8	114,1
Oltiariq tumani	237,3	5,1	112,5
Qo'shtepa tumani	137,8	3,0	110,9
Bag'dod tumani	132,0	2,9	112,6
Buvayda tumani	163,0	3,5	114,3
Beshariq tumani	139,6	3,0	113,9
Quva tumani	162,0	3,5	111,3
Uchko'prik tumani	185,4	4,0	112,1
Rishton tumani	143,6	3,1	113,1
So'x tumani	60,9	1,3	112,4
Toshloq tumani	153,7	3,3	113,3
O'zbekiston tumani	137,4	3,0	113,2
Farg'ona tumani	157,0	3,4	111,9
Dang'ara tumani	126,4	2,7	112,5
Furqat tumani	78,3	1,7	112,0
Yozyovon tumani	97,1	2,1	111,4

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-fevral)




## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Farg'ona sh.	4 067,9	+12,9 %
Qo'qon sh.	2 486,7	+15,4 %
Marg'ilon sh.	1 459,6	+12,2 %
Oltiariq	1 049,5	+9,0 %
Quvasoy sh.	992,3	+10,0 %
Yozyovon	819,8	+9,7 %
Uchko'prik	776,1	+10,2 %
So'x	733,7	+9,7 %
Dang'ara	722,8	+10,1 %
Farg'ona	715,8	+9,5 %
Toshloq	709,1	+9,4 %
Rishton	669,2	+10,8 %
Qo'shtepa	667,7	+10,8 %
Buvayda	666,9	+11,7 %
Furqat	622,9	+11,0 %
Quva	593,0	+12,0 %
O'zbekiston	590,1	+8,0 %
Beshariq	580,2	+9,3 %
Bag'dod	572,5	+10,2 %




## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-fevral)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **63,9** foizni, shu jumladan, **19,9** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-fevral holatiga)






## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-fevral holatiga)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>4 629,8</b>	<b>100,0</b>	<b>114,2</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	245,4	5,4	111,3
Moliyaviy xizmatlar	1 133,7	24,5	127,6
Transport xizmatlari	917,4	19,8	109,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	854,9	18,5	110,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	127,3	2,7	111,1
Savdo xizmatlari	1 158,0	25,0	110,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	110,7	2,4	107,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	172,5	3,7	110,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	101,5	2,2	108,0
Ijara xizmatlari	97,2	2,1	118,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	131,3	2,8	112,1
Shaxsiy xizmatlar	245,5	5,3	112,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	38,7	0,8	86,4
Boshqa xizmatlar	150,8	3,3	115,3

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral)




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral, mlrd. so'mda)

Farg'ona sh.	527,9
Qo'qon sh.	233,1
Buvayda	67,7
Marg'ilon sh.	44,4
Quva	26,6
O'zbekiston	25,7
Beshariq	24,2
Rishton	23,5
Uchko'prik	22,4
Oltiariq	20,3
Dang'ara	18,7
Quvasoy sh.	17,0
Farg'ona	16,5
Toshloq	15,9
Bag'dod	14,7
Qo'shtepa	13,7
Yozyovon	8,5
So'x	6,7
Furqat	6,2

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-fevral)

Yordamchi moliyaviy faoliyat





Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Farg'ona shahrining ulushi **46,5** foizni yoki **527,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yilning fevral** oyiga nisbatan Farg'ona shahrida yuqori o'sish sur'ati **120,8** % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **93,2 %**.

Qo'qon shahrida transport xizmatlari hajmi **179,4** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **107,2 %** ni tashkil etgan.


## Transport xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-fevral)



## Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-fevral)





<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda    ⚙️ O'sishi


## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-fevral) <sup>1)</sup>

**2024- yil fevral oyida**

avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **854,9** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **18,5 %** ni tashkil etdi.



### Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)



Transport xizmatlari umumiy hajmida Qo'qon shahrining ulushi **22,0** foizni yoki **167,3** mlrd so'mni tashkil etdi.

**2023-yilning fevral oyiga** nisbatan Rishton tumanida **112,4** foiz yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

**2024- yilning fevral oyida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni 70,8 foizni tashkil etdi.**

## Savdo xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-fevral)



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Farg'ona sh.	151,1	+19,9%
Qo'qon sh.	132,1	+12,2%
Uchko'prik	100,4	+19,4%
Oltiariq	89,2	+14,6%
Marg'ilon sh.	86,6	+9,9%
Bag'dod	54,4	+20,4%
Qo'shtepa	53,4	+12,8%
Quva	53,3	+15,9%
Beshariq	52,3	+16,6%
Toshloq	52,0	+18,5%
Farg'ona	47,3	+14,1%
Dang'ara	46,9	+13,8%
Rishton	43,0	+24,9%
Yozyovon	38,1	+16,2%
O'zbekiston	36,4	+5,2%
Buvayda	35,1	+4,8%
Quvasoy sh.	32,3	+8,4%
Furqat	28,2	+12,8%
So'x	25,9	+17,9%

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi






Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning fevral** oyida ularning ulushi **90,4** foizni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-fevral)



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)





<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda


O'sish

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral)

Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil fevral** oyidagi ulushi **58,8 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral, mlrd. so'mda)






## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral)

**2024- yil-ning fevral** oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmi-da shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **43,1** foizni tashkil etdi.



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish (kamayishi)


## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral holatiga)



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi


## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-fevral)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **92,0** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish (kamayish)

**2024- yilning fevral** oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichim-liklar bilan ta'min-lash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **82,5 foiz**.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-fevral)



## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-fevral)




## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral, mlrd. so'mda)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-fevral)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **63,2** foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda ● O'sish



## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral holatiga)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral holatiga, mln. so'mda)



**2020- yilning fevral** oyiga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **15,2** mlrd. so'mga oshib, **38,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Farg'ona shahrining ulushi **72,9** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi  
Tel.: 73-241-98-82

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.